

TAQIQLANGAN BUYUMLARNI ANIQLOVCHI VOSITALARNING AFZALLIKLARI

Sultanbaev Altinbay Maxsetbaevich

Qoraqalpog‘iston Respublikasi mintaqaviy

O‘quv markazi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya. Taqiqlangan buyumlarni aniqlovchi vositalar bugungi kunda xavfsizlik tizimining eng muhim tarkibiy qismi sifatida e’tirof etilmoqda. Ushbu vositalar aeroportlar, chegaralar, davlat muassasalari va yirik tadbirlar xavfsizligini ta’minlashda samarali qo’llaniladi. Ularning asosiy afzalligi shundaki, inson omiliga bog‘liq xatoliklarni kamaytiradi va aniqlash jarayonida yuqori darajadagi aniqlikni kafolatlaydi. Shuningdek, zamonaviy texnologiyalar asosida yaratilgan vositalar portlovchi moddalar, o‘tkir quollar, narkotiklar kabi xavfli buyumlarni qisqa vaqt ichida aniqlab, tezkor choralar ko‘rishga imkon yaratadi. Bu esa xavfsizlik xizmatlari ishini yengillashtiradi, odamlar hayoti va mulkini himoya qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotlar ko‘rsatadiki, bunday vositalardan foydalanish xavfsizlik darajasini sezilarli ravishda oshiradi hamda xavfxatarlarni oldindan aniqlash va bartaraf etishda muhim o‘rin tutadi.

Kalit so‘zlar: taqiqlangan buyumlar, xavfsizlik tizimi, aniqlash vositalari, texnologiya, afzalliklar, himoya, xavf-xatar.

Bugungi globallashuv davrida xavfsizlik masalalari insoniyat hayotida alohida o‘rin egallaydi. Transport vositalarining tez rivojlanishi, xalqaro aloqalarning kengayishi, yirik tadbirlarning muntazam o‘tkazilishi va odamlarning doimiy harakatlanishi xavfsizlik tizimiga bo‘lgan talabni sezilarli darajada kuchaytirdi. Shu sababli, taqiqlangan buyumlarni aniqlash va ularni jamiyatdan chetlashtirish texnologiyalari zamonaviy xavfsizlik xizmatlarining ajralmas qismiga aylandi.

Taqiqlangan buyumlar deganda odatda quroq-yarog‘, portlovchi moddalar, narkotik vositalar, zaharli kimyoviy elementlar va inson hayoti hamda jamiyat tinchligiga tahdid

solvchi boshqa narsalar tushuniladi. Ushbu buyumlarni aniqlash jarayonida qo‘lda tekshiruv yetarli natija bermasligi sababli maxsus texnologiyalardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, aeroport, temir yo‘l vokzallari, chegara nazorati, davlat idoralari va yirik xalqaro tadbirdarda bu vositalarning samaradorligi yuqori darajada namoyon bo‘ladi.

Xavfsizlik tizimida inson omiliga tayanish har doim ham yetarli emas. Chunki inson diqqatining chalg‘ishi, charchoq, tajribasizlik yoki boshqa omillar sababli xavfli buyumlarni ko‘zdan qochirishi mumkin. Shu bois texnologik yondashuv muhim sanaladi. Maxsus qurilmalar yordamida taqiqlangan buyumlarni aniqlash:

- tezkorlik,
- aniqlik,
- xavfsizlik xizmati samaradorligini oshirish,
- inson omilidan kelib chiqadigan xatoliklarni kamaytirish imkonini beradi.[1]

Masalan, xalqaro aeroportlarda rentgen apparatlari, metall aniqlagich darvozalar va qo‘l metall detektorlari keng qo‘llanadi. Ular orqali millionlab yo‘lovchilarning xavfsizligini ta’minlash imkoniyati mavjud.

Metall detektorlari qurol-yarog‘, pichoqlar va boshqa o‘tkir metall buyumlarni tezkor aniqlashda qo‘llaniladi. Ularning afzalligi – ixchamligi, foydalanishning qulayligi va arzonligidir.

Yo‘lovchilarning sumkalari va yuklarini tekshirishda rentgen apparatlari muhim o‘rin tutadi. Ular yordamida portlovchi moddalar, narkotiklar va yashirilgan boshqa taqiqlangan buyumlarni aniqlash imkoniyati yaratiladi.

Maxsus kimyoviy analizatorlar havo namunasi orqali portlovchi moddalar izlarini aniqlash imkonini beradi. Bu usul tezkor va yuqori aniqlikka ega.

Maxsus optik va kimyoviy texnologiyalar asosida ishlaydigan qurilmalar orqali giyohvand moddalar mavjudligini aniqlash mumkin.[2]

Ba’zi hollarda taqiqlangan buyumlarni aniqlash nafaqat jismoniy tekshiruv, balki shaxsni identifikatsiya qilish orqali ham amalga oshiriladi. Biometrik tizimlar (barmoq izi, yuz skaneri) xavfli shaxslarning kirib kelishini oldini olishda muhim.

Ilm-fan rivoji bilan taqiqlangan buyumlarni aniqlash vositalari ham takomillashib bormoqda. Masalan:

Sun’iy intellekt asosidagi tizimlar rentgen apparatlari suratlarini avtomatik tahlil qilib, xavfli buyumlarni aniqlashda xodimlarga yordam beradi.

3D skanerlar yuklarni to‘liq hajmda ko‘rsatib, yashirin joylarda ham xavfli narsalarni ko‘rishga imkon yaratadi.

Portativ detektorlar yordamida xavfsizlik xodimlari bevosita joyida tekshiruv o‘tkazishi mumkin.

Texnologik qurilmalar inson ko‘zi ilg‘ay olmaydigan narsalarni aniqlash imkoniyatiga ega. Bu esa xavfsizlikni ta’minalashda ishonchli kafolatdir.

Bir necha soniya ichida yuzlab odamlarni tekshirish imkoniyati mavjud. Masalan, metall detektorlari odamlarning oqimini to‘xtatmasdan tekshiruvdan o‘tkazadi.

Ushbu vositalar inson omilini kamaytiradi va xodimlarga murakkab vazifalarda yordam beradi.

Taqiqlangan buyumlarni olib o‘tmoqchi bo‘lgan shaxslar ushbu qurilmalar mavjudligini bilganlari uchun bunday harakatlardan voz kechadilar.

Eng katta afzallik – inson hayoti, sog‘ligi va mol-mulkini himoya qilishdir.

Dunyo tajribasida taqiqlangan buyumlarni aniqlash vositalari keng qo‘llanmoqda. Masalan:

Aeroportlar – xalqaro xavfsizlik standartlariga ko‘ra, barcha yo‘lovchilar metall detektorlardan o‘tkaziladi va yuklari rentgen apparatida tekshiriladi.

Davlat idoralari – yuqori darajadagi uchrashuvlarda portlovchi moddalarni aniqlash qurilmalari ishlataliladi.

Sport tadbirlari – Olimpiada, Jahan championati kabi yirik musobaqalarda maxsus skanerlardan foydalaniladi.

Chegara hududlari – narkotik moddalar va qurollarni aniqlash uchun zamonaviy texnologiyalar o‘rnatilgan.

Har qanday texnologiyaning o‘ziga yarasha kamchiliklari ham bo‘ladi. Masalan:

- ✓ Qurilmalar qimmat va texnik xizmat ko‘rsatishni talab qiladi.
- ✓ Ba’zida noto‘g‘ri signal berishi mumkin.
- ✓ Inson omili bilan uyg‘un ishlashi uchun qo‘sishimcha o‘qitish kerak.

Biroq bu muammolarni hal etish yo‘llari mavjud: davlat tomonidan investitsiya jalg etish, xodimlarni muntazam o‘qitish, texnologiyalarni mahalliylashtirish va arzonlashtirish.[3]

O‘zbekiston Respublikasida ham xavfsizlik tizimlari izchil rivojlantirilmoqda. Aeroportlarda zamonaviy rentgen apparatlari, metall detektorlari va portlovchi moddalarni aniqlash qurilmalari o‘rnatilgan. Bundan tashqari, temir yo‘l vokzallari va yirik tadbirlar o‘tkaziladigan majmualarda ham bunday vositalar keng qo‘llanmoqda. Bu esa milliy xavfsizlikni mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Kelajakda taqiqlangan buyumlarni aniqlovchi vositalar yanada samarali va arzon bo‘lishi kutilmoqda. Xususan:

- Sun’iy intellekt asosidagi to‘liq avtomatlashtirilgan tizimlar,
- Noutbuk hajmidagi ixcham detektorlar,
- Biometrik va xavfli buyumlarni birgalikda aniqlash imkoniyatiga ega qurilmalar,
- Internet tarmoqlariga ulangan global xavfsizlik tizimlari joriy etilishi rejalashtirilmoqda.[4]

Xulosa qilib ayganda, taqiqlangan buyumlarni aniqlovchi vositalar bugungi kunda xavfsizlik tizimining ajralmas qismi hisoblanadi. Ularning asosiy afzalliklari yuqori aniqlik, tezkorlik, ishonchlilik, profilaktika vazifasini bajarishi va inson hayotini himoya qilishga xizmat qilishidadir. Bu vositalar nafaqat terrorchilik va jinoyatchilikni oldini olishda, balki jamiyat tinchligi va farovonligini ta'minlashda ham beqiyos ahamiyatga ega. Shu bois kelgusida ham ushbu texnologiyalarni yanada rivojlantirish va samarali qo'llash zarurdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Axmedov, A. Xavfsizlik tizimida zamonaviy texnologiyalarning qo'llanilishi. Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi nashriyoti. 2020. C- 234, 238.
2. Qodirov, M. Transport xavfsizligi va taqiqlangan buyumlarni aniqlash usullari. Samarqand: SamDU nashriyoti. 2021. 456-b
3. Rasulov, B. Metall detektorlari va rentgen apparatlari qo'llanilishi. Toshkent: Fan va texnologiya. 2021
4. Karimova, D. Sun'iy intellekt asosida xavfsizlikni ta'minlashning innovatsion yo'llari. Toshkent: Innovatsiya universiteti matbaa markazi. 2022. C 675